

QADIMGI XORAZM HUDUDIDA ISTIQOMAT QILGAN XALQLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Raximov Oybek Xasanboy o'g'li

E-mail: oybekjon.9990@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qadimgi davrda Xorazm hududida yashagan va elat sifatida shakllangan bir qancha xalqlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari aynan ushbu davrdagi siyosiy vaziyat, memorchilik aholining turmush tarsi va hu kabi masalalarga ham etibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *madaniyat, o'troq aholi, chorvador, sopol buyum, etnik, mudofaa.*

Аннотация: *В данной статье собраны сведения о нескольких народах, проживавших в Хорезмской области в древности и сформировавшихся как народ. Кроме того, уделяется внимание таким вопросам, как политическая ситуация этого периода, образ жизни населения и др.*

Ключевые слова: *культура, оседлое население, скотоводство, гончарство, этнос, оборона.*

Abstract: *This article contains information about several peoples who lived in the Khorezm region in ancient times and formed as a people. In addition, attention is paid to such issues as the political situation of this period, the lifestyle of the population, etc.*

Key words: *culture, settled population, cattle breeding, pottery, ethnic, defense.*

O'rta Osiyoning o'troq aholisi sug'orma dehqonchilik madaniyatini va hunarmandchilik sirlarini yaxshigina egallagan edilar. Bu davrda asosan shimoliy xududlardan O'rta Osiyoga kirib kelgan ko'chmanchi chorvador qabilalar cho'l va dasht zonalariga joylasha boshladilar. Vaqtlar o'tishi bilan tubjoy aholining o'troq hayoti va dehqonchilikka asoslangan xo'jaligi chorvadorlarning turmush tarziga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Chorvador jamoalar ham o'zlariga dastlab vaqtinchalik bo'lsada qarorgohlar va makonlar qurganlar. Ular, asosan Amuda ryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi havzalarida, tog' yon bag'irlaridagi soy bo'ylarida istiqomat qilganlar. Chorvador qabilalar madaniy va x o'jalik taraqqiyoti jihatidan janubning o'troq jamoalaridan ancha orqada edilar.

Tadqiqotlar qadimgi Xorazmning Tozabog'yob madaniyatini yaratgan chorvador qabilalar qisman qadimgi suv havzalarining pastqam va zaxkash qismlarida ibtidoiy dehqonchilik bilan ham shug'ullanganliklarini ko'rsatadi. Tozabog'yob madaniyatiga xos bo'lgan yarim yerto'la turar joylar, qo'lda yasalgan va turli geometrik naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlar Qozog'iston va Sibirning cho'l zonalaridagi sopol buyumlarga o'xshaydi. Shularga asoslanib, S.P.Tolstov tozabog'yobliklarni Andronova qabilalarining avlodlari deb hisoblagan. Arxeologik manbalarda bu davrlarga oid



yodgorliklardan ikki zona aholisi o'rtasida keskin to'qnashuvlar sodir bo'lganligiga guvohlik beruvchi ma'lumotlar uchramagan [1:61].

Tozabog'yob madaniyatiga xos bo'lgan xususiyatlar Zarafshon daryosi etaklarida yashagan chorvador qabilalar o'rtasida ham mavjudligi aniqlandi. Quyi Zarafshon urug' jamoalari yashagan yarim yerto'la va chaylalar, ular yasagan sopol idishlarning shakli va naqshlari, ishlov berish va pishirish texnologiyasi tozabog'yobliklarnikidan deyarli farq qilmaydi. Bunday o'xshashliklar, har ikkala jamoaning o'zaro yaqin iqtisodiy, madaniy va etnik aloqada bo'lganliklaridan dalolat beradi. "Xorasmiy"larning Xorazm vohasiga ko'chib kelishi haqida qarashlar olimlarning farazlariga asoslangan. Gekatey va Geradod asarlarida "xorasmiylar" etnonomi mavjud bo'lib, Xorazm mamlakati yoki viloyati sifatida tilga olinmagan.

M.G.Vorobevaning aytishicha, Gekatey O'rta Amudaryodagi Xorazm yerlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan. Bu yerlar Parfiyadan shimoliy-sharqda joylashgan [2:41].

Ilk temir davrida, Xorazm vohasining moddiy madaniyatida yangiliklarni yoyilishi paxsa va xom g'ishtdan uy joylar va mudofaa devorlari qurilishi hamda shaharsozlik madaniyatining shakllanish jarayoni mill. avv. VII asrda Baqtriya va Marg'iyona aholi vakillarining Xorazm vohasiga kirib kelishi – migratsiyaning natijasi sifatida e'tirof etilishi (Xorazmliklar) O'rta Osiyoning janubida istiqomat qilmaganlar va ular etnos-elat sifatida mahalliy hamda ko'chib kelgan Marg'iyonaBaqtriya aholi guruhi bilan qo'shilishi-assimilatsiyasi natijasida Xorazmda paydo bo'lgan degan fikr e'tiborga molik [3:17].

S.Bolelov, O'rta Amudaryo yerlaridan Baqtriya ahli guruhining so'l sohili Xorazm yerlariga migratsiya oqibatida, baqtrialik hunarmandlar Xumbuztepa ustaxonalarida ishlagan deb yozadi [4:20].

V.N.Yagodinining takidlashicha, Baqtriyadan janubiy aholi vakillarining Xorazm vohasiga ko'chib kelishi natijasida, vohada kulolchilik charxi, paxsa va xom g'ishtdan qurilgan mudofaa devorlari, yirik inshootlar va uy-joylar paydo bo'lib, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligi yangi asoslarda rivojlandi [5:71]. So'nggi yillarda ushbu masalaga A.A.Asqarov va S.Baratov oydinlik kiritishga harakat qilganlar. A.A.Asqarov Geradodning Akes daryosi suvlaridan foydalanish to'g'risida ma'lumotlariga asoslanib, quydagicha yozadi: "Ahamoniy podshohlari tazyiq o'tkazish orqali sharqiy Eron qabilalaridan yiliga katta boj olish maqsadida Hilmend tog' daralaridan oqib chiqadigan soylarga to'g'onlar qurdirib suv yo'llarini qadimgi Hilmend, hozirgi Hirot vodiysiga Xorasmiylar yurtiga burib yuborgan. Natijada,vodiyda ko'l hosil bo'lib, Xorasmiylar noilojlikda vatanlarini tark etib, Amudaryoning quyi havzalariga ko'chishga majbur bo'lganlar" [6:113]. Tadqiqotchilarning taxmin qilishicha, xorasmiylarning quyi Amudaryo hududiga kirib kelishi bilan bu yerda yangi makrotoponim - xorazm atamasi paydo bo'ldi. "Ungacha xorasmiylar Hilment vodiysiga (Hirot vohasi) yashab, o'troq hayot kechirgan", deb xulosa chiqaradi [7:45].



Xorasmiylar ahamoniylar bosqiniga qadar Tajan -Gerurd va Murg'ob vohalarida istiqomat qilganlar. Mill. avv. 519-yildan so'ng qadimgi fors podshosi Doro I va uning vorislari Xorazm vohasida o'z hukmronligini mustahkamlash va ziroatchilik tayanch maskanlariga asos solish maqsadida quyi Amudaryo havzasiga janubdan xorasmiylarni ko'chirganlar. Xorasmiylar ko'chirilishi davriga qadar Xorazm vohasida yarim ko'chmanchi sak-massagetlar joylashganlar.

Xorazmliklar elat sifatida mahalliy chorvador-ziroatchi qabilalar va o'rta Amudaryo yerlaridan ko'chib kelgan Marg'iyona-Baqtriya aholi guruhlari bilan qo'shilishi-assimilatsiyasi natijasida Xorazmda paydo bo'lganlar. "Xorasmiylar" -qadimgi xorazmliklar elatining kelib chiqishi masalasi yuzasidan quyidagi xulosalarni bildirish mumkin.

1. Mill. avv. VII-VI asr boshlarida, Xorazm tarixida murakkab etnomadaniy jarayon yuzaga kelgan. Ular mahalliy Amirobod madaniyati jamolarining vorislari bo'lgan quyisoyliklar, ko'chib kelgan ilk Saklar va Ko'zaliqir madaniyatini yaratgan aholi guruhlarning yoyilishi bilan izohlanadi.

2. Massaget qabilalari doimiy ravishda Xorazm vohasida istiqomat qilmaganlar, ular janubiy Ural oldi va O'zboy o'zani oralig'dagi hududlarda ko'chib yurganlar.

3. Ko'zaliqir madaniyati asosiy belgilariga ko'ra, ilk temir davri Parfiya, Marg'iyona va Baqtriya madaniyatlari bilan bog'liq bo'lgan. Janubida bu madaniyatning an'analari chuqur ildizlarga ega.

4. Parfiya aholisi Sariqqamish bo'yi hududlariga sharqiy Kaspiybo'yi va O'zboy sohillari orqali ko'chib borishlari mumkin edi. Marg'ionaliklar va Baqtriyaliklar migratsiyalarining tayanch markazi o'rta Amudaryodagi Odoytepa bo'lgan.

5. Janubiy aholisi guruhlarning Xorazm vohasiga kirib kelishi bodqichmabosqich, tinch sharoitda sodir bo'lgan. Dastlab voha hududlariga hunarmandlar va binokorlar ko'chib kelganlar. Ular kulolchilik ishlab chiqarish (Humbuztepa) va Hazarasp, Ko'zaliqir kabi istehkomlar qurish ishlarini amalga oshirganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи (энг қадимги даврлардан эрамининг В асригача). – Тошкент, 1994. – В.61.

2. Воробьева М. Проблемы "Большого Хорезма". – С. 41.

3. Болелов С.Б. Некоторые итоги археологических работ на Хумбузтепе // ОНУ. – Ташкент, 1999. –С. 20.

4. Сагдуллаев А.С. Маргияна и Бактрия Исторические традиции и культурные связи в донтичную эпоху //Древний Мерв.- Ашхабад: 1989. С.17.

5. Ягодин ВИ Древнейшая государственность и проблема "Большого Хорезма" Вестник// ККАО АН РУз,- Нукус, 2007. – С.71.





6. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. –Т.: Университет, 2007.– Б.113.

7. Асқаров.А .Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университет, 2007. – Б.45.

